



O'SMIRLIK DAVRIDA IRODAVIY FAOLLIK SHAKLLANISHIGA VAZIYATLI VA IJTIMOYIY OMILLAR TA'SIRI.

**Isaxanova Moxidil
Erkinovna**

QDU o`qituvchisi

**Adhamova
OydinoyAzamatjon qizi**

QDU talaba

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrida irodaviy faollikning shakllanish jarayoni hamda unga ta'sir etuvchi vaziyatli va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Maqolada oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari hamda turli hayotiy vaziyatlarning o'smir irodasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, irodaviy faollikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik shartlari va tavsialari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, iroda, irodaviy faollik, ijtimoiy omillar, vaziyatli omillar, shaxs rivojlanishi, motivatsiya, o'zini boshqarish.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarning ma'naviy-axloqiy, intellektual hamda psixologik jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanishi davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning mustaqil fikrlaydigan, o'z oldiga aniq maqsad qo'ya oladigan, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan hamda o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara oladigan shaxs sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sifatning shakllanishida iroda va irodaviy faollik alohida o'rin egallaydi. Chunki iroda insonning ichki imkoniyatlarini safarbar etib, uni maqsad sari yo'naltiruvchi, turli qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tishga undovchi muhim psixik mexanizm hisoblanadi.

O'smirlik davri inson ontogenezing eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davrda organizmda sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar, psixik rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilishi hamda ijtimoiy munosabatlar doirasining kengayishi natijasida shaxsning o'ziga, atrofdagilarga va jamiyatga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaradi. O'smir o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari va hayotdagi o'rnini anglashga intiladi, mustaqillikni qadrlay boshlaydi va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga harakat qiladi. Bu jarayonlarda irodaviy faollikning rivojlanishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan o'smirlik davrida maqsadga intilish, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, o'zini nazorat qilish, mas'uliyatni his etish kabi irodaviy sifatlar faol rivojlana boshlaydi. Biroq ushbu sifatning shakllanish darajasi

barcha o'smirlarda bir xil kechmaydi. Bu holat shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda uning yashash muhiti, tarbiya sharoiti, tengdoshlari bilan munosabatlari hamda duch keladigan turli hayotiy vaziyatlarga ham bog'liqdir. Shuning uchun irodaviy faollikni shakllantiruvchi omillarni chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'smirlar hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar soni va ko'lami sezilarli darajada ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, ta'lim tizimidagi yangilanishlar hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yoshlarning psixologik rivojlanishiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda o'smirlarning irodaviy barqarorligini ta'minlash, ularda mas'uliyat hissini rivojlantirish va hayotiy maqsadlarga erishish yo'lida qat'iyatlilikni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Irodaviy faollikning shakllanishida vaziyatli omillar ham alohida ahamiyatga ega. O'quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, tengdoshlar bilan yuzaga keladigan nizolar, oilaviy muammolar, turli tanlov va qaror qabul qilish bilan bog'liq holatlar o'smirning irodaviy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi. Aynan shunday vaziyatlarda shaxsning maqsadga erishish yo'lidagi qat'iyati, sabr-toqati va o'zini boshqarish qobiliyati namoyon bo'ladi hamda takomillashadi.

Shuningdek, ijtimoiy omillar ham o'smir irodasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar jamoasi, mahalla va kengroq ijtimoiy muhit o'smirning qadriyatlarini, motivlari va xulq-atvor me'yorlarini shakllantiruvchi asosiy institutlar hisoblanadi. Ushbu omillarning ijobiy ta'siri natijasida o'smirida mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyatlilik kabi sifatlar rivojlansa, salbiy ta'sirlar uning irodaviy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Irodaviy faollik esa shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari va maqsadlari asosida yuzaga keladigan faol harakatlar tizimini anglatadi. Ushbu jarayon insonning maqsad qo'yishi, qaror qabul qilishi, harakat rejasini tuzishi va uni amalga oshirish davomida o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishi bilan tavsiflanadi. O'smirlik davrida irodaviy faollikning rivojlanishi shaxsning o'z imkoniyatlarini anglay boshlashi, mustaqillikka intilishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqdir.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, irodaviy faollikning shakllanishi motivatsion sohaning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. O'smir o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan va ushbu maqsadning ahamiyatini anglagan taqdirdagina irodaviy zo'r berishga tayyor bo'ladi. Shu sababli maqsadlarning mazmuni, ularga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj darajasi irodaviy faollikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

O'smirlik davrida bir qator muhim irodaviy sifatlar shakllanadi va takomillashadi. Jumladan:

- Qat'iyatlilik;
- Mustaqillik;
- Sabr-toqat;
- Mas'uliyatlilik;
- Tashabbuskorlik;
- O'zini nazorat qilish;
- Maqsadga intiluvchanlik

Mazkur sifatlarning rivojlanishi o'smirning shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan irodaviy sifatlarning yordamida o'smir o'z faoliyatini rejalashtiradi, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, qiyinchiliklarni yengadi va jamiyat talablariga moslashadi. Irodaviy faolligi yuqori darajada shakllangan o'smirlar odatda o'quv faoliyatida muvaffaqiyatliroq bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadilar hamda kelajakdagi kasbiy va shaxsiy hayotlariga nisbatan mas'uliyat bilan yondashadilar.

O'smirlik davrida irodaviy faollikning rivojlanishi faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan emas, balki u faoliyat yuritayotgan muhit va duch kelayotgan turli hayotiy vaziyatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Psixologiyada vaziyatli omillar deganda shaxsning ma'lum bir davrda duch keladigan tashqi sharoitlari, muammolari, talab va imkoniyatlari tushuniladi. Aynan ushbu omillar o'smirning irodaviy sifatlarni namoyon etish, rivojlantirish va mustahkamlash uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Har bir vaziyat o'smirdan muayyan darajada qat'iyat, sabr-toqat, mas'uliyat va o'zini boshqarishni talab qiladi. Natijada shaxs o'z tajribasini boyitadi va irodaviy jihatdan takomillashib boradi.

Ta'lim faoliyatidagi vaziyatlar. Ta'lim jarayoni o'smir shaxsining irodaviy rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Maktabda o'quvchi muntazam ravishda ma'lum talab va vazifalarni bajarishi, o'z bilim darajasini oshirishi hamda o'quv faoliyatini rejalashtirishi zarur bo'ladi. Murakkab mavzularni o'zlashtirish, uy vazifalarini vaqtida bajarish, nazorat ishlari va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari o'quvchidan kuchli irodaviy zo'r berishni talab etadi. Ayniqsa, uzoq muddatli maqsadlarni ko'zlab harakat qilish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish o'smirning maqsadga intiluvchanligini rivojlantiradi. O'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlar o'z navbatida o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, muvaffaqiyatsizliklar esa qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan irodaviy tayyorgarlikni shakllantiradi. Shu jihatdan ta'lim muassasasi irodaviy sifatlarning rivojlanishida muhim tarbiyaviy makon hisoblanadi.

Muammoli vaziyatlar. Hayot davomida uchraydigan turli muammolar va qiyinchiliklar o'smirning irodaviy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazuvchi omillar hisoblanadi. O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar, oiladagi muammolar, tengdoshlar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar yoki shaxsiy muvaffaqiyatsizliklar o'smirni muayyan qarorlar qabul qilishga undaydi.

Muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga intilish jarayonida o'smirning mas'uliyat hissi kuchayadi, qat'iyatlilik va sabr-toqat kabi sifatlari rivojlanadi. Shuningdek, bunday vaziyatlar shaxsda muammolarni tahlil qilish, ularga turli nuqtai nazardan yondashish hamda optimal yechimlarni topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Muammolarni muvaffaqiyatli yengib o'tgan o'smir kelajakda murakkab vaziyatlarga nisbatan yanada ishonchli va faol munosabat bildira boshlaydi.

Stress va ziddiyatli holatlar. O'smirlik davri emotsional jihatdan murakkab bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda turli stressli va ziddiyatli vaziyatlar tez-tez uchrab turadi. Ota-onalar bilan fikrlar to'qnashuvi, tengdoshlar bilan nizolar, akademik bosim, muvaffaqiyatsizliklardan xavotirlanish yoki kelajak bilan bog'liq noaniqliklar o'smirning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday vaziyatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qila olish, vazminlikni saqlash va oqilona qaror qabul qilish irodaviy sifatlarning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Stressli holatlarni muvaffaqiyatli yengib o'tish o'smirda psixologik barqarorlikni, o'zini boshqarish qobiliyatini va qiyinchiliklarga bardoshlilikni rivojlantiradi. Aksincha, bunday vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Raqobat va muvaffaqiyatga erishish vaziyatlari. Zamonaviy ta'lim va ijtimoiy muhitda o'smirlar turli tanlovlar, musobaqalar, fan olimpiadalari va ijodiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday vaziyatlar ularda yuqori natijalarga erishish istagini shakllantirib, maqsad sari izchil harakat qilishga undaydi. Raqobat muhiti o'smirning ichki imkoniyatlarini safarbar qiladi, o'z ustida ishlash va qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Muvaffaqiyatga erishish jarayoni ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirsa, muvaffaqiyatsizliklar esa xatolar ustida ishlash va yangi strategiyalar ishlab chiqishga undaydi. Shu tariqa raqobat va natijaga yo'naltirilgan faoliyat irodaviy sifatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Oilaning ta'siri. Oila shaxs rivojlanishining birlamchi ijtimoiy instituti hisoblanadi. Ota-onalarning tarbiya uslubi, oiladagi psixologik muhit va farzandga bo'lgan munosabat o'smirning irodaviy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Demokratik tarbiya uslubida voyaga yetayotgan o'smirlar ko'proq mustaqil qaror qabul qilishga va mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. Aksincha, haddan tashqari nazorat yoki beparvolik irodaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tengdoshlar guruhi. O'smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyat turlaridan biriga aylanadi. Guruhdagi ijobiy munosabatlar, hamkorlik va o'zaro yordam irodaviy faollikning rivojlanishiga xizmat qiladi. Salbiy guruh ta'siri esa aksincha, mas'uliyatsizlik va intizomsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta'lim muassasasi va pedagoglar

Maktab va o'qituvchilar o'smir shaxsining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. O'qituvchining rag'batlantiruvchi yondashuvi, mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlashi va o'quvchini faoliyatga jalb qilishi irodaviy faollikni rivojlantiradi.

Ommaviy axborot vositalari va internet. Raqamli texnologiyalar davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Mazkur vositalar orqali tarqaladigan axborotlar yoshlarning qadriyatlarini, motivlari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli media savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'smirlik davrida irodaviy faollikni samarali shakllantirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. O'smirmu mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish.

2. Maqsad qo'yish va rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Mas'uliyat hissini shakllantirish.
4. Muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.
5. Muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o'rgatish.
6. Sog'lom ijtimoiy muhit yaratish.
7. Ota-ona va pedagoglar hamkorligini kuchaytirish.

Xulosa. O'smirlik davrida irodaviy faollikning shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonga vaziyatli omillar - ta'lim jarayoni, muammoli holatlar, tanlov vaziyatlari va stressli sharoitlar ta'sir etsa, ijtimoiy omillar - oila, tengdoshlar, ta'lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Ijobiy ijtimoiy muhit va maqsadli pedagogik ta'sir o'smirda mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik va o'zini boshqarish kabi irodaviy sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois o'smirlarning irodaviy faolligini rivojlantirishda oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. Toshkent, 2004.
2. Nishonova Z.T. va b. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. Toshkent, 2018.
3. G'oziev E.G'. *Ontogenaz psixologiya*. – Toshkent., 2010.
4. Nishonova Z.T., Dustmammedova Sh.A. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. Toshkent, 2013.
5. Karimova V.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva, 1991.
7. Kon I.S. *Psixologiya yunosti*. – Moskva: Prosveshcheniye, 1989.